

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>R.Arslonzoda, O.Maripov</b>	
O'zbekiston Respublikasida davlat arxivlari faoliyatining takomillashib borishi .....	318
<b>R.Urazova</b>	
Avesto yashlarida Mitraning sifatleri .....	325
<b>N.Nizametdinov</b>	
Markaziy Osiyoning Xitoy bilan aloqalari tarixi.....	331
<b>I.Burxonov</b>	
Asomiddin O'rinboev ilmiy merosida Abduxoliq G'ijduvoni tasavvufiy ta'limotiga oid ruq'alarning o'rganilishi.....	338
<b>N.Jumaev</b>	
XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro vohasi dehqonchilik madaniyati tarixidan .....	342
<b>D.Akramov</b>	
Xalq maorifining nazariy asoslari.....	348

## ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>G.Oripova</b>	
Mustaqillik davri o'zbek lirikasida ritm va ohangdorlik.....	354
<b>I.Baltayeva</b>	
Adabiy vorisiylkning xorij adabiyotida o'rganilishi.....	359
<b>F.Oxunjonova</b>	
XIX asr oxiri va XX asr boshlarida zullisonaynlik an'anasi takomili (Nodim, Xilvatiy, xayratilar ijodi misolida) .....	362
<b>D.Uralova</b>	
Ulug'bek Hamdamning "Safar" hikoyasida ramziy obrazlar uyg'unligi.....	366
<b>S.Begmatova</b>	
Jahon adabiyotida distopik asar turlariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar .....	370
<b>A.Yuldashev</b>	
Alisher Navoiy asarlarida so'z tavsifi .....	374
<b>O.Barziyev</b>	
Farzand taqdiriga murojaat yoki ularga nasihat qilish mavzusiga oid an'anaviy poetik turkumlar .....	382
<b>D.Sultonova</b>	
Badiiy kriminal asarlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.....	387
<b>S.Alibekova</b>	
O'tkir Hoshimovning hajviy xarakter yaratish mahorati .....	392
<b>Sh.Sherg'oziyev</b>	
"Boburnoma" matnida foydalanilgan saj'i mutarrafnig ingliz tili tarjimalarida aks ettirilishi .....	396
<b>X.To'raxonova</b>	
Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida badiiy tasviriy vositalarning qo'llanilishi .....	400
<b>D.Hazratkuliyon</b>	
Hozirgi O'zbekiston tojik she'riyatida bediliy uslub an'analariga izdoshlik (Ja'far Muhammad Termiziy she'ri misolida) .....	403
<b>M.Narziqulov</b>	
Tojik adabiyotida g'azalning mundariyasi va shakli o'zgarishi .....	410
<b>M.Mirzoyev</b>	
Farzona Xo'jandiy she'rlarida mifologik personajlar badiiy ifodasining xususiyatlari .....	420

## TILSHUNOSLIK

<b>Z.Alimova</b>	
Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha qo'shma so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari haqida .....	425
<b>O.Nazirova</b>	

**ASOMIDDIN O'RINBOYEV ILMIY MEROSIDA ABDUXOLIQ G'IJDUVONIY TASAVVUFIIY TA'LIMOTIGA OID RUQ'ALARNING O'RGANILISHI****ИЗУЧЕНИЕ ТРУДОВ О МИСТИЧЕСКОМ УЧЕНИИ АБДУХОЛИКА ГИДЖДУВАНИ В НАУЧНОМ НАСЛЕДИИ АСОМИДДИНА УРИНБОЕВА****THE STUDY OF WORKS ON THE MYSTICAL TEACHING OF ABDUXOLIK GIDJDUVANI IN THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ASOMIDDIN URINBOEV****Burxonov Ilyosxon Muxiddinovich<sup>1</sup>****<sup>1</sup>Burxonov Ilyosxon Muxiddinovich**

– Farg'ona davlat universiteti tayanch doktranti.

**Annotatsiya**

Maqolada Abduxoliq G'ijduvoniylar tasavvufiy ta'limoti tushunchasini Asomiddin O'rinboyev tomonidan yoritilishi, XV asrlardagi siyosiy-ijtimoiy hayotda bu ta'limotning o'rni va rivojlanishi haqidagi dalillar ruq'alarga asosan tahlil etilganligi haqida so'z yuritiladi. Bunda muallif Xoja Ahror Valiy hamda Abdurahmon Jomiyning maktublariga asosan Asomiddin O'rinboyev chuqur ilmiy tadqiqot o'tkazganini tahlil etadi. Tasavvufning xojagon tariqatida insoniylikning barcha ijobiy fazilatlarini ilgari surilganligi maktublardan ayon bo'lishini xulosalab beradi.

**Аннотация**

В статье говорится, что Асомиддин Уринбоев разъяснил концепцию суфийского учения Абдухолика Гиджувани, а также на основе рукописей. В ней автор анализирует глубокое научное исследование Асомиддина Уринбоева на основе писем Ходжи Ахрора Вали и Абдурахмана Джамии. Он заключает, что из писем видно, что в Ходжаганской секте суфизма подчеркиваются все положительные качества человечества.

**Abstract**

The article says that Asomiddin Urinboev explained the concept of the Sufi teachings of Abdukholik Gijduvani, as well as on the ruq'as. In it, the author analyzes the deep scientific research of Asomiddin Urinboev based on the letters of Khoja Akhror Vali and Abdurakhman Jami. He concludes that it is clear from the letters that all the positive qualities of humanity are emphasized in the Khojagan sect of Sufism.

**Kalit so'zlar:** tariqat, ruq'a, qo'lyozma, ijtimoiy, tasavvuf, odat, qoida, tadqiqot, e'tiqod, temuriy, ziyoli.

**Ключевые слова:** секта, рука, рукопись, социальный, суфизм, обычай, правило, исследование, вера, Тимурид, интеллектуал.

**Key words:** sect, hand, manuscript, social, Sufism, custom, rule, research, faith, Timurid, intellectual.

**KIRISH**

Tarixchi olim Asomiddin O'rinboyev ilmiy tadqiqotlarining mavzu chegaralari rang-barang bo'lib, Abu Ali ibn Sino ilmiy tadqiqotlari, Amir Temur va temuriylar davri tarixi, Qo'qon xonligi tarixiga oid arab, fors tilidagi qo'lyozma manbalarni o'zbek, rus tillariga tarjima qilgan. Sharq qo'lyozmalari bo'yicha kataloglar yaratish bo'yicha amalga oshirgan tadqiqotlari nafaqat yurtimizda, balki AQSH, Ozarbayjon, Eron, Yaponiya, BAA kabi davlatlarda ham bir necha bor nashr etilgan.[1.1.] Ushbu maqolada esa olimning tasavvufda naqshbandiya tariqatining rivojlanishiga poydevor bo'lib xizmat qilgan xojagon tariqati va uning asoschisi Abduxoliq G'ijduvoniylarning falsafiy qarashlari Asomiddin O'rinboyevning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilganlik masalasini tahlil etish maqsad qilib olindi. Abduxoliq G'ijduvoniylarning diniy e'tiqod masalasidagi o'g'itlari haqidagi ma'lumotlarni Asomiddin O'rinboyev noan'anaviy usulda talqin etgan. Bu Alisher Navoiyga tegishli bo'lgan "maktublar majmuasi" bo'yicha amalga oshirilgan, Asomiddin O'rinboyevning o'ziga xos bo'lgan tadqiqot usullaridan biridir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Abduxoliq G'ijduvoniylar tasavvufiy ta'limoti bo'yicha esa "Xojagon tariqati va Abduxolik G'ijduvoniylarning ma'naviyat tarixidagi o'rni"[2.1. B. 24-26.], "XV asr yozishmalarida naqshbandiya ta'limotining aks etishi" [3.1. B. 35-41.] kabi ilmiy tadqiqotlari Asomiddin O'rinboyevning yangi yo'nalishdagi tafakkur qirralarini ochishga xizmat qiladi.

Asomiddin O'rinboyev ilmiy merosida Abduxoliq G'ijduvoniylar tasavvufiy ta'limotiga oid ruq'alarning o'rganilishi masalalarini geografik metodga asosan ikki guruhga bo'lib tadqiq etildi.

## TARIX

Birinchi guruhni mahalliy nashrlarda chop etilgan ilmiy maqola va risolalari, ikkinchi guruhni esa xorijiy davlatlarda nashr etilgan tadqiqotlari tashkil etdi.

Tadqiqotning maqsadidan kelib chiqib, Asomiddin O'rinboyevning mahalliy nashrlarda e'lon qilingan ilmiy tadqiqotlari quyidagilar ekanligi aniqlandi: "Xoja Ahror Valiyning Alisher Navoiyga maktublari" [4.1.B.23-25.], "Xoja Ahror Valiyning Alisher Navoiyga yozgan bir maktublari" [5.1.B.144-145.], "Xoja Ubaydulloh Ahror Valiy maktublarida XV asr ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga doir qaydlar" [6.1.B.5-12.], "Alisher Navoiyga maktublar" [7.1.B.7-11.].

Tanlangan muammo bo'yicha Asomiddin O'rinboyevning xorijiy davlatlarda 10 ga yaqin ilmiy ishlari chop etilgan bo'lib, ushbu tadqiqotda ular ham birma-bir tahlil etildi: "The letters of Abdurahman Jami as a Source of the Poet's Personality", "Pisma Djami (na yaz. dari)", "Makatibi Jami", "Namaxay-yi dastnavis-i Djami", "Abduraxmon Jomiy. Nomax,o", "Namaxa-yi mavlano Abduraxman Djami (na pers. yaz.)", "Nameha va monsa' at-e Jami. Nur al-Din 'Abdal- Rahman ibn Ahmad Jami. Miras-e Maktub" kabi maqola va kitoblari shular jumlasidandir [8.1.].

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Asomiddin O'rinboyev XV asr ikkinchi yarmiga kelib Movarounnahr va Xurosonda xojagon-naqshbandiya tariqatini keng tarqalishida Xoja Ubaydulloh Ahror va ulug' mutaffakir adib Abdurahmon Jomiylarning hissalariga katta bo'lganligini bir qancha ilmiy maqolalarida ta'kidlab o'tgan. Bu dalillarni "O'z davri ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan bu tarixiy-ma'naviy jarayon XV va XVI asr boshlarida yozilgan bir qancha tasavvufiy-biografik asarlar bilan bir qatorda tariqat ahliga mansub, xususan, uning rahbarlari Xoja Ubaydulloh Ahror, Abdurahmon Jomiylar tomonidan temuriylar (Xuroson) davlatining Hirot saroyiga yo'llangan xatlarida aks etgan"ligi bilan asoslab bergan [9.1. B. 17-19.]. Asomiddin O'rinboyev O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida № 2178 inv raqam bilan saqlanayotgan "Majmuayi murosalo" nomi bilan qayd etilgan Alisher Navoiyga kelgan maktublar jamlanmasini mukammal o'rganib chiqadi. Ushbu maktublar jamlanmasida umumiy hisobda 594 ta ruq'a, ya'ni maktublar kiritilgan. Asomiddin O'rinboyevning ta'kidlashicha, ular 16 nafar shaxs tomonidan Alisher Navoiy hazratlariga yozib jo'natilgan. Shulardan 337 ta maktubni Abdurahmon Jomiy o'z dastxati bilan yozgan. Xoja Ubaydulloh Ahror esa 128 ta maktub-ruq'ani yozgan va o'z muhrini ham qo'ygan. Boshqa ruq'alar esa Alisher Navoiyga Xoja Ahror Valiyning yaqinlari tomonidan ( o'g'il, kuyov, muridlari) hamda 5 ta xurosonlik olim- ziyolilardan jo'natilgan.

Asomiddin O'rinboyev e'tiborini tortgan masala — Abdurahmon Jomiy va Xoja Ahrorning maktublarida ba'zi tariqat ahllarining iltimosnomalari ham aksar ruq'alarda bayon etilganligi bo'ladi. Asomiddin O'rinboyev ushbu maktublarni alohida turkumga ajratish lozimligini ta'kidlab o'tadi. Ularda davlat amaldorlariga ishi tushgan, ammo huquqlari himoya etilmagan, adolatsizlikka uchragan aholining arzlarini yozilganligi ham hayratlanarli holdir. Bundan tashqari Alisher Navoiyga kambag'al dehqonlar, nochor hunarmandlar, muhtoj mudarris-u talabalarning iltimoslariga ko'ra Abdurahmon Jomiy va Xoja Ahrorlar tomonidan yozilgan va iltimoschilarning shaxsan o'zi tomonidan Navoiyga yetkazilgan maktublar ham ko'p miqdorni tashkil etgan.

Asomiddin O'rinboyev Xoja Ubaydulloh Ahrorning Abduxoliq G'ijduvoniylar tilidan aytilgan quyidagi so'zlarini keltirganligiga ishora qilgan: "Hazrati Abduxoliq G'ijduvoniylar buyurmishlarki, xalq gardanidan og'irlikni ko'tarish kerak, ammo bunga halol kasb bilangina erishiladi". "Qo'l ish bilan, dil yor (Allah) bilan" shiori xojagon tariqatida muqarrardir".

Tariqat yo'lida bo'lgan odam xalq manfaatini birinchi o'ringa qo'ygan. Lekin, Alisher Navoiy ba'zida ijodini mukammal davom ettirish niyatida davlat boshqaruvidan voz kechish niyatida bo'lgan vaqtlarida Xoja Ahror va Abdurahmon Jomiy : "...Qudratli sultonga yaqin bo'lish va unga o'z so'zini o'tkaza bilish — ulug' ne'matdir. Bu ne'mat shukronasi esa kishi o'zligini va o'z vaqtini musulmonlar yumushiga sarflash, ulardan zolimlar qo'lini kalta qilish, zulmni yo'qotishdir..." deya uni qaytarishgan.[9.2.B.18.]

Asomiddin O'rinboyev Abduxoliq G'ijduvoniylarning "Giroiy az gardani xalq boyad bardosh", ya'ni "Xalq gardanidan og'irlikni yengillatish kerak" ijtimoiy-falsafiy g'oyasini Xoja Ahror Valiy "Sultonlarga murojaat qilib, ulardan xalq ahvolini yengillatishni talab qilmoq lozim" deb davom ettirganligini "Majmuayi murosalo"ning beshinchi raqamli ruq'asiga tayanib dalillab o'tadi.

Xoja Ahror Valiy tomonidan yozilgan yana bir maktubda “Islom dini va musulmonlar tayanchi bo‘lishda Alloh taolo Sizning umum ezguliklaringizni kam qilmasin” degan duoni Xusayn Bayqaroga tilagan holda mamlakat ijtimoiy hayotiga oid uch masalani bayoni keltiriladi. Ulardan birida, — deydi Asomiddin O‘rinboev, “Hirot shahrida jinoyatchi kimsalar musulmonlarni qaqshatayotganligi, lekin ularga chora ko‘rilmayotganligi, ikkinchisida savdogar himoyalanganligi, amaldorlar — dallollar ulardan qo‘shimcha soliq yig‘ayotganligi sababidan savdogarlar shaharga kelganliklaridan afsuslanayotgani, uchinchi masalada “Havo-ut va dudiy” (tutun puli) singari favqulodda soliqlar haddan ziyod talab qilinayotganligi haqida batafsil yozilgan. Alqissa, har kim o‘z manfaatini amalga oshirish maqomidadir, hech kim musulmonlar holi haqida fikr yuritmaydur. Vassalom” deya maktub tugatiladi.[9.3.B.19]

### XULOSA

1. Asomiddin O‘rinboev Abduxoliq G‘ijduvoni tomonidan yaratilgan hamda rivojlantirilgan xojagon tariqatini ruq‘alar asosida tadqiq etish mobaynida “Alisher Navoiy albomi” va unga kiritilgan maktublarni ham batafsil tahlil qilib bergan.

2. Alisher Navoiyga tegishli bo‘lgan “Maktublar majmuasi” da Abdurahmon Jomiyning 337 ta va Xoja Ahrorning 128 ta maktubini birma-bir o‘qib, tarjimasini amalga oshirgan hamda ularni turkumlashtirgan.

3. Abduxoliq G‘ijduvoni tariqatidagi adolat, oliyanoblik, elparvarlik g‘oyalarini amaliy ifodasi sifatida Abdurahmon Jomiy va Xoja Ahrorlar tomonidan bitilgan ruq‘alarda davlat amaldorlaridan aziyat chekkan, adolatsizlikka uchragan oddiy kishilarga imkon qadar yordam berish, xalq koriga yarash kabi ishlarni bayon etilganligi Asomiddin O‘rinboev tadqiqotlarida chuqur o‘rganilgan.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Уринбаев А. Некоторые итоги и перспективы подготовки каталога. // Материалы всесоюзного совещания “Принципы описания археографических памятников Востока”. – Баку: Изд-во “Элм”, 1977. – С. 78-88. (Urinbaev A. Some results and prospects for the preparation of the catalog. // Proceedings of the All-Union Conference “Principles for describing the archeographic monuments of the East”. - Baku: Publishing house “Elm”, 1977. - P. 78-88.); Уринбаев А. Собрание восточных рукописей АН УзССР, опыт описания рукописей, каталогизация и изучение // Вопросы описания и каталогизации рукописей Южного Урала. – Уфа. 1985. – С. 86-92. (Urinbaev A. Collection of Oriental Manuscripts of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR, the experience of describing manuscripts, cataloging and studying // Problems of description and cataloging of manuscripts in the Southern Urals. - Ufa. 1985. - P. 86-92.); Уринбаев А., Фарфур А., Мужь ал-Хафиз М. Предисловие к каталогу: Ал-мунтако мин махтутат ма‘хад ал-Бируни би Ташканд. – Дубай, 1995. (Urinbaev A., Farfur A., Muzh al-Khafiz M. Preface to the catalogue: Al-muntako min makhtutat ma‘had al-Biruni bi Tashkent. – Dubai, 1995); Уринбаев А., Мужоний С., Мусаев Ш. Каталог тузишда қатнашиш ва кириш қисмини ёзиш. / Фехрист-и нусах-и хатги-еи фарси ганжина-и Институте шарқшуноси Абу Райхон Беруни. Тошканд. Бахш-и аввал аз джилд-и аввал. – Техрон: Тарих, 1997. – 118 б. (Fehrist-i nusakh-i khatgi-ei farsi ganzhina-i Institute of sharkshunosi Abu Rayhon Beruni. Toshkand. Bakhsh-i avval az jild-i avval. - Tehron: Tarikh, 1997. - 118 p.); Уринбаев А., Елифанова Л. Предисловие и участие в каталоге: Ал-му‘жам . ал-муфахрас лил Махтутат ал-арабийя фи Ташканд ихда ашара мужаллад (перевод на арабск. яз. “Собрание восточных рукописей АН Руз” выполнен доктором Н. Иброхимовым. 3. Мунавваровым и др.). – Бейрут, 1998. 5 с. (Urinbaev A., Epifanova L. Preface and participation in the catalogue: Al-mu‘jam. al-mufahras lil Mahtutat al-arabiyya fi Tashkand ikhda ashara muzhallad (translated into Arabic “Collection of Oriental Manuscripts of the Academy of Sciences of Ruz” by Dr. N. Ibrokhimov, 3. Munavvarov and others). - Beirut, 1998. 5 p.); Уринбаев А., Т.Хорикава, Т.Файзиев, К. Исогай, Г.Джураева. Каталог хивинских казийских документов XIX- начала XX вв. // – Киото, 2001. 716. (Urinbaev A., T. Horikava, T. Faiziev, K. Isogai, G. Juraeva. Catalog of Khiva Kazi documents of the 19th-early 20th centuries. // - Kyoto, 2001. 716)
2. Ўринбоев А. Хожогон тариқати ва Абдухалик Гиждувонийнинг маънавият тарихидан ўрни. // – Навоий, 2003. – Б. 24-26. (Orinboev A. The role of Khojagan sect and Abdukholik Gijduvani in the history of spirituality. // – Navoi, 2003. – B. 24-26.)
3. Ўринбоев А. XV аср ёзишмаларида нақшбандия таълимотининг акс этиши. // Шарқшунослик. – Тошкент: Фан, 1994. – № 5. – Б.35-41. (Orinboev A. Reflection of Naqshbandi doctrine in XV century correspondence. // Oriental studies. -Tashkent: Science, 1994. - No. 5. - B.35-41.)
4. Ўринбоев А. Хожа Аҳрор Валийнинг Алишер Навоийга мактублари. // ж. Мулоқот. – № 1. – Тошкент, 1999. – Б. 23-25 (Orinboev A. Letters of Khoja Ahror Vali to Alisher Navoi. // j. Communication. - No. 1. - Tashkent, 1999. - B. 23-25)
5. Ўринбоев А. Хожа Аҳрор Валийнинг Алишер Навоийга ёзган бир мактублари. // Шарқшунослик. – № 9. – Тошкент, 1999. – Б.141-145. (Orinboev A. One of the letters written by Khoja Ahror Vali to Alisher Navoi. // Oriental studies. - No. 9. - Tashkent, 1999. - P.141-145.)
6. Ўринбоев А. Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор Валий мактубларида XV аср ижтимоий-иқтисодий ҳаётига доир қайдлар. // Темурийлар даври маданий ёдгорликлари. (“Темурийлар тарихига оид манбалар: муаммолар, мулохазалар” мавзuida ўтказилган Республика миқёсидаги илмий анжуман материаллари. Тошкент. Темурийлар тарихи Давлат музейи) – 1-китоб. – Тошкент. 2003. – С. 5- 12. (Orinboev A. Notes on the socio-economic life of the 15th century in the letters of Khoja Ubaidullah Ahror Vali. // Cultural monuments of the Timurid period. (“Resources on

## TARIX

the history of the Timurids: problems, considerations" materials of the republic-wide scientific conference. Tashkent. State Museum of the history of the Timurids) - book 1. - Tashkent. 2003. – S. 5-12.)

7. Ўринбоев А. Алишер Навоийга мактублар. // Жаҳон адабиёти. – Тошкент, 2003. – Б.7-11.(Orinboev A. Letters to Alisher Navoi. // World literature. - Tashkent, 2003. - P.7-11.)

8. Urinbaev A., Epifanova L. The letters of Abdurahman Jami as a Source of the Poet's Personality. // Vadnameye jan Rypka Academia Publishing House of the Czechoslovak Academy of Sciences. – Prague, 1967. – P.159-188.; Urinbaev A., Epifanova L. The letters of Abdurrahman Jami as a Source of the Poet's Personality. // ж. Afghanistan V. XXVII, - №2. – Kabul. 1974. – P. 79-85; Ўша муаллифлар: Письма Джамии (на яз. дари). // ж. Ариана. Т. XXXIII. – № 314. – Кабул, 1975. – С. 54-61 (Letters of Jami (in Dari language). // and. Ariana. T. XXXIII. - No. 314. - Kabul, 1975. - S. 54-61); Уринбаев А. Макатиби Жами. // ж. Хорачсан. – № 8. – Кабул, 1982. – С. 53-70. (Urinbaev A. Makatibi Zhami. // and. Khorachsan. - No. 8. - Kabul, 1982. - S. 53-70) Уринбаев А. Намахай-йи дастнавис-и Джамии. – Кабул: Афғонистон Давлат нашриёти, 1987. 109б. (Urinbaev A. Namahai-yi dastnavis-i Jami. - Kabul: Afgoniston Davlat nashriyoti, 1987. 109b.); Уринбаев А., Рахмонов А. Абдурахмон Жомий. Номах,о. (Сборник всех писем Джамии, критический текст, исследование на перс-тадж.яз.). – Душанбе: Изд-во. "Ирфон", 1989. – С. 135. (Urinbaev A., Rakhmonov A. Abdurakhmon Zhomy. Nomah, oh (Collection of all Jami's letters, critical text, study in local language). - Dushanbe: Publishing house. "Irfon", 1989. - S. 135.); Уринбаев А., Рахмонов А. Намаха-йи мавлано Абдурахман Джамии (на перс, яз.). // ж. Семург. – № 12-1. – Техрон, 1993. – С.62-75. (Urinbaev A., Rakhmonov A. Namaha-yi mawlano Abdurakhman Jami (in Persian, lang.). // and. Semurg. - No. 12-1. – Tekhron, 1993. – P.62-75.); Urinbaev. A., Rahmonov A. Nameha va monsa' at-e Jami. Nur al-Din 'AM al- Rahman ibn Ahmad Jami. Miras-e Maktub. – Tehran, 2000. – 360 б.

9. Ўринбоев А. Абдухолик Гиждувоний тасаввуфий таълимотининг Хожа Аҳрор Валий ва Абдурахмон Жомий рукъаларида акс этиши. // Абдухолик Гиждувоний ва тасаввуф. – Тошкент, 2003. – Б. 17-19. (Orinboev A. Reflection of Sufi teachings of Abdukholik Gijduvani in the rukas of Khoja Ahror Vali and Abdurahman Jami. // Abdukholiq G'ijduvani and Sufism. - Tashkent, 2003. - B. 17-19.)